

UDK: 378.147:811.111

**BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING INTELLEKTUAL
SALOHIYATINI SHAKLLANTIRISHDA KLASTERLI
KOMPETENSIYALAR VA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALARNING AXAMIYATI**

Ataboyeva Muyassar Baxromovna
Toshkent davlat tibbiyot universiteti chirchiq filiali o‘qituvchisi
CHDPU mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya :Mazkur maqolada bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o‘rni tahlil qilinadi. Ta’lim jarayonida klasterli kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlari, innovatsion metodlar hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar: intellektual salohiyat, kompetensiya, klaster yondashuvi, pedagogik texnologiyalar, innovatsion ta’lim, ingliz tili o‘qituvchisi.

**ВАЖНОСТЬ КЛАСТЕРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ И СОВРЕМЕННЫХ
ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ
ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ
УЧИТЕЛЕЙ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА**

Атабоева Муяссар Бахромовна
Преподаватель, Чирчикский филиал Ташкентского государственного
медицинского университета
Независимый исследователь ЧДПУ

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы формирования интеллектуального потенциала будущих учителей английского языка с использованием современных педагогических технологий. Анализируются механизмы формирования кластерных компетенций, инновационные методы обучения и применение информационно-коммуникационных технологий в образовательном процессе.

Ключевые слова: интеллектуальный потенциал, кластерные компетенции, педагогические технологии, инновационное обучение.

**THE IMPORTANCE OF CLUSTER COMPETENCES AND MODERN
PEDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN FORMING THE INTELLECTUAL
COMPETENCE OF FUTURE ENGLISH TEACHERS**

Ataboyeva Muyassar Bahromovna

Teacher, Chirchik Branch of Tashkent State Medical University
Independent Researcher of CHDPU

Abstract : This article examines the formation of the intellectual potential of future English language teachers through modern pedagogical technologies. The study analyzes the mechanisms of developing cluster competencies, innovative teaching methods, and the use of information and communication technologies in the educational process.

Keywords: intellectual potential, cluster competencies, pedagogical technologies, innovative education.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonida pedagog kadrlarning professional tayyorgarligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Xususan, ingliz tili o'qituvchilarini tayyorlash jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ularning intellektual salohiyatini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Globalashuv jarayonida xorijiy tillarni o'rganish nafaqat kommunikativ ehtiyoj, balki ilmiy va kasbiy faoliyatning muhim omiliga aylandi. Shu sababli bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish, ularning innovatsion fikrlashini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bo'lajak ingliz tili ta'limi sifati - o'qilayotgan, tahlil qilinayotgan mavzuga o'qituvchining mas'uliyat bilan yondashishi, ushbu mavzuning mazmunini talabalarga yetkazishga qaratilgan mahorati, uning o'quv jarayonini bugungi kun talablari asosida tashkil eta olishi bilan belgilanadi. Bunda pedagogik texnologiya imkoniyatlari va usullaridan foydalanish muhim hisoblanadi. YUNESKO ning ta'rifi bo'yicha "Pedagogik texnologiya - bu butun o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida oldingi ta'lim shakllarini samaradorlashtirish vazifasini qo'yuvchi texnik hamda shaxs zaxiralari va ularning aloqasini hisobga olib, bilimlarni yaratish, qo'llash va belgilashning tizimli uslubidir".

L.V.Zevin ta'lim texnologiyasini, butun pedagogik faoliyat asosida loyihalashni amalga oshirishning amaliy jarayoni, o'qituvchi va talaba uchun to'la qulay sharoitni ta'minlash orqali ta'lim jarayonini tashkil etish va o'tkazish modeli deb ta'riflaydi. ¹

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi pedagogik texnologiyani amaliyotga samarali joriy etishi uchun: davr talabiga mos dars maqsadi va vazifalarini aniq belgilashi, ingliz tili fani mazmunini o'quv dasturi bo'yicha mukammal egallashi, muntazam

¹ L.V.Zevin ta'lim texnologiyasini, butun pedagogik faoliyat asosida loyihalashni amalga oshirishning amaliy jarayoni

ravishda pedagogik mahoratini oshirib borishi, didaktik jarayonni amalga oshirish bilan tanish bo'lishi, o'qitishning samarali shakl, usul, vosita va texnologiyalaridan foydalana olishi hamda talabanning o'zlashtirishini muntazam nazorat qilib, baholab borishi lozim.

Umuman olganda, ingliz tili o'qituvchisi: pedagogik texnologiyaning ilmiy-nazariy asoslarini; o'quv jarayoniga tizimli, texnologik, kompetensiyaviy yondashuvlarni; innovasion o'qitish texnologiyalarini; o'quv jarayonini loyihalashni; o'qitishning faol usullaridan foydalanishni; uy vazifalarini maqsadli byerishni; muammoli topshiriqlarini talaba faoliyat darajalariga mos holda tuzishni; Internyet tarmog'idan foydalanishni; talabalarning bilimni ob'yektiv baholash kabilarni bilishi kerak.

Qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarni bir tizimga solish, unga maqsadli yo'nalish berish o'quv darsini tashkil etishdagi shakl va mazmun yaxlitligini ta'minlagan holda kutilishi zarur natijani olishni belgilaydi. Ingliz tili o'quv jarayoniga testlarning joriy etilishi, diagnostik tahlilning kiritilishi, monitoring nazoratining yuritilishi, bilimlarni xolisona baholashga o'tish, ingliz tili fanining bob, bo'lim mazmunini yaxlit holda o'zlashtirishni modellashtirish, tizimga solingan nazorat turlarida talabalarning ishlashi hamda noan'anaviy dars shakllarining vujudga kelishi o'quv jarayonidagi an'anaviy ta'lim o'rniga vujudga kelgan yangi pedagogik texnologiyalar bo'lib, ular yangicha fikrlash tizimidagi o'quv jarayoniga o'tishni taqozo etadi.

Pedagogik texnologiyalar bo'yicha bildirilgan fikrlarni umumlashtirsak pedagogik texnologiya mazmuni, ingliz tili o'qituvchisining kasbiy faoliyatida zamonaviy o'qitish vositalaridan foydalangan holda o'qitish samaradorligini oshirish, talabalarning bilim olish sifatini yaxshilash, talab etilgan bilim darajasiga erishi uchun o'quv jarayonini oldindan loyihalashtirishdan iborat deb tushunish mumkin. Demak, pyedagogik tyexnologiya - o'quv jarayoni uchun loyihalani va byelgilangan maqsadga erishishga yo'naltiriladi. Loyihalash, mo'ljalangan maqsad va uni amalga oshirish usul va vositalari yig'indisini aniqlashdan iborat. Bunda - o'qitish texnologiyasini amalga oshirish vaqtini aniqlash; o'quv materialini tahlil qilish; maqsad va vazifalarni ajratib olish; o'quv materialini tizimga solish; bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish bosqichlari, talabning sifat va fazilatlarini shakllantirishni aniqlab olish ketma-ketligida ishlar amalga oshiriladi.

L.V.Zevin ta'lim texnologiyasini, butun pedagogik faoliyat asosida loyihalashni amalga oshirishning amaliy jarayonlaridan biri bo'lib, faoliyatni tahlil qilish, uni oldindan ko'ra bilish hamda rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasi ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.² Pedagogik vazifani hal

² L.V.Zevin ta'lim texnologiyasini, butun pedagogik faoliyat asosida loyihalashni amalga oshirishning amaliy jarayoni

etishning bu bosqichida o'zining va talaba faoliyatining mazmuni, vositalari va dasturlarini loyihalashga nisbatan mustaqil yo'naltirilgan, o'zaro uzviy aloqada bo'lgan o'qituvchi faoliyatini ko'rsatish mumkin. Shunga ko'ra pedagogik jarayonni loyihalash mazmuni, texnologiyalari birligi sifatida namoyon bo'ladi.

Loyihalashni bevosita ingliz tili fani darsida talabalar bilimni nazorat qilish va xolisona baholay olmaslik va boshqalar amalga oshirish mumkin. Bu jarayonda - ingliz tili fani mavzusi bo'yicha maqsad va vazifalar bilan talabalarni tanishtirish; muammoli topshiriq, uy vazifalari va mustaqil bajariladigan ishlarni, ularni bajarish tartibini tushuntirish; mavzuni o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar byerish, uning me'yorlarini aytib byerish; talabalarni faol, mustaqil faoliyatga jalb etish; bilishga motivasiya hamda muammolarni bajarishga ehtiyoj uyg'otish; mavzu bo'yicha umumiy xulosalar chiqarish; talabalar erishgan yutuqlarni tahlil qilish ishlariga alohida e'tibor qaratilishi lozim.

Bo'lajak ingliz tili o'qituvchisi shuni esdan chiqarmaslik kerakki, talabalar dars jarayonida turli muammolarga duch keladi, bu albatta sifat va samaradorlikka salbiy ta'sir qiladi. O'tkazilgan tahlillar bugungi kunda ingliz tili fani darslarini tashkil etishda o'qituvchilarda quyidagi umumiy kamchiliklar borligini ko'rsatadi, ular: ingliz tili fani o'qituvchilarining pedagogik mahorat va qobiliyatining sustligi hamda zamonaviy ta'lim talablarini e'tiborga olmaslik; o'quv jarayonini davr talablariga mos, hayot, turmush, fan-texnika, ishlab chiqarish bilan bog'lash asosida tashkil etmaslik; o'qitishda talabaning avvalgi bilimi, qiziqish, ehtiyoj va hayotiy tajribalarini hisobga olmaslik; o'qitishning zamonaviy metodika, metod, shakl, texnologiya va vositalaridan samarasiz foydalanish; ingliz tili o'qituvchilarining o'z ustida ishlash mexanizmining takomillashtirilmaganligi; talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan kasbiy sifatlar hamda fikrlash operatsiyalariga e'tiborsizlik; ingliz tili fani o'quv materiallari mazmuniga yetarlicha e'tibor qaratmaslik hamda o'tkaziladigan darsning asosan tanishtiruv xarakteriga egaligi, har bir darsdan keyin qisqacha xulosa, muammoli savol va topshiriqlar bermaslik; olingan nazariy bilimlardan amaliyotda foydalana olmaslik; Yuqoridagilarni inobatga olgan holda tibbiyot yo'nalishidagi bo'lajak ingliz tili fanidan o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun o'qituvchilarga quyidagi tavsiyalarni beramiz: ingliz tili fanidan o'quv jarayonini davr talablari asosida tashkil etishda innovasion pedagogik va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini egallagan, kasbiy tayyorgarlikka ega, zamonaviy fikrlovchi o'qituvchilarni tanlash, o'sib borayotgan zamonaviy talablarni hisobga olgan holda ularning malakasini muntazab oshirib borish; ingliz tili fanini o'qitish sifatini ta'minlashga qaratilgan innovasion pedagogik va axborot texnologiyalari, elektron ta'lim resurslari va multimedia taqdimotlaridan keng foydalanish, bu boradagi xorij tajribasini

o'rganish; o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish asosida talabalarning tibbiyot sohasi to'g'risidagi bilimlarini kengaytirish, ularni mazkur sohada raqobatga yetarlicha tayyor bo'lishiga erishish; talabalarda mustaqil ravishda fikr yuritgan holda tibbiy faoliyat yo'nalishlarini tanlash va egallashlari uchun zarur bo'lgan mustaqillik, ijodkorlik, tashabuskorlik va tadbirkorlik sifatlarini shakllantirish.

Bu borada bo'lajak ingliz tili fani bo'yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim: auditoriyalarni zamonaviy texnika vositalari bilan jihozlash va ulardan ingliz tili fani darslarida samarali foydalanish; ingliz tilidan tashkil etiladigan o'quv jarayonining mantiqiy-tuzilish shaklini (darsni tashkil etishda ketma-ketlik) aniqlash; ularni bevosita hayot, turmush, ishlab chiqarish, fan-texnika, texnologiya talablariga moslashtirish; muammoli topshiriqlarni tuzish; ingliz tili fani bo'yicha fan, texnika va texnologiya sohalarida dunyo miqyosida tan olingan yangiliklar bo'yicha nashr etilgan yangi avlod o'quv adabiyotlarining mazmun va mohiyatini aks ettirish; ular asosida metodiy tavsiyalar va ko'rsatmalarni tayyorlash; pedagogik va axborot texnologiyalar hamda intefaol usullarning zamonaviy turlaridan foydalanish asosida talabalarda o'quv-bilish kompetensiyalarini shakllantirishga erishish.

Adabiyotlar tahlili :Ilmiy tadqiqotlarda ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuvni qo'llashning samaradorligi keng o'rganilgan. Xorijiy olimlar J. Harmer, H. Brown, D. Nunan, S. Krashen kabi tadqiqotchilar til o'qitish metodikasida kommunikativ yondashuvning muhimligini ta'kidlaydilar.

Mahalliy tadqiqotchilar esa pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish orqali o'qitish samaradorligini oshirish mumkinligini qayd etadilar. Ayniqsa, klaster yondashuvi talabalarning analitik fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda respublikamizning taniqli olimlari: N.X.Avliyokulov³, N.N.Azizxo'jayeva, N.S.Saidahmedov, O.D.Raximov, L.V.Golish, M.Tojiyev, M.M.Xolmuxamedov, K.B.Hayitboyev, A.Mavlyanov kabilar ilmiy asoslangan, mintaqamizning ijtimoiy-pedagogik sharoitiga moslashgan pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish va ularni o'quv jarayonida foydalanishga harakat qilmoqdalar. Buning uchun ingliz tili o'quv jarayonini zamonaviy tashkil etish, loyihalashga yetarli e'tibor berish, uning asosiy turlariga ilmiy jihatdan yondashish, shakllari va hajmini o'rganish masalalariga ingliz tili o'qituvchilari tomonidan e'tiborni oshirish, o'quv jarayoni sifatini oshirishda ma'lum bir tizimni yaratish, talabalarni ko'proq muammoli ilmiy-tadqiqot ishlariga jalb etish muhim. Ushbu dolzarb muammolarning ijobiy hal qilinishi ko'p jihatdan ingliz tili o'qituvchilarining kasbiy salohiyati va pedagogik mahoratiga, saviyasiga, tayyorgarligiga va fidoiyligiga, uning yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga

³ .Celce-Murcia M. Teaching English as a Second Language.

bo'lgan munosabatiga, turli darajadagi kompetensiyalarining shakllanganligiga bog'liqdir.

Tadqiqot metodologiyasi: Tadqiqot jarayonida quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatuv

tahlil va taqqoslash

eksperimental tadqiqot

umumlashtirish metodi

Mazkur metodlar yordamida ingliz tili darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligi o'rganildi.

Asosiy qism: Bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim rol o'ynaydi:

Interaktiv metodlar: Interaktiv o'qitish metodlari talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishini ta'minlaydi. Masalan:

-brainstorming

-case study

-debat

-loyiha asosida o'qitish

-Klaster yondashuvi

Klaster usuli talabalarning bilimlarini tizimli ravishda shakllantirishga yordam beradi va mavzular o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi.

Axborot texnologiyalari: Multimedia vositalari, elektron platformalar va raqamli ta'lim resurslari talabalarning bilimini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Natijalar

Tadqiqot natijalariga ko'ra: zamonaviy pedagogik texnologiyalar talabalarning bilim darajasini oshiradi klasterli kompetensiyalar kasbiy tayyorgarlikni kuchaytiradi interaktiv metodlar mustaqil fikrlashni rivojlantiradi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, bo'lajak ingliz tili o'qituvchilarining intellektual salohiyatini rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar muhim ahamiyatga ega. Klasterli kompetensiyalarni shakllantirish esa talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son, 23.09.2020 y.

2. Brown, H. D. (2007). Principles of Language Learning and Teaching. Pearson Longman.

3. Harmer, J. (2007). How to Teach English. Pearson Longman.

4. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press.
5. Nunan, D. (1991). *Language Teaching Methodology*. Prentice Hall.
6. Scrivener, J. (2011). *Learning Teaching: The Essential Guide to English Language Teaching*. Macmillan Education.
7. Ur, P. (2012). *A Course in English Language Teaching*. Cambridge University Press.
8. Nation, I. S. P. (2001). *Learning Vocabulary in Another Language*. Cambridge University Press.
9. Oxford, R. L. (1990). *Language Learning Strategies: What Every Teacher Should Know*. Newbury House.
10. Larsen-Freeman, D., & Anderson, M. (2011). *Techniques and Principles in Language Teaching*. Oxford University Press.
11. Ellis, R. (1997). *Second Language Acquisition*. Oxford University Press.
12. Hedge, T. (2000). *Teaching and Learning in the Language Classroom*. Oxford University Press.
13. Johnson, K. (1996). *Language Teaching and Skill Learning*. Blackwell Publishers.
14. Thornbury, S. (2005). *How to Teach Speaking*. Pearson Longman.
15. Tomlinson, B. (2011). *Materials Development in Language Teaching*. Cambridge University Press.
16. Celce-Murcia, M. (2001). *Teaching English as a Second or Foreign Language*. Heinle & Heinle.
17. Passov, E. I. (1991). *Kommunikativniy metod obucheniya inoyazichnomu govoreniyu*. Prosveshenie.
18. Zimnyaya, I. A. (2010). *Pedagogicheskaya psixologiya*. Logos.
19. Leontyev, A. A. (1997). *Psixologiya obscheniya*. Smisl.
20. Richards, J. C. (2001). *Curriculum Development in Language Teaching*. Cambridge University Press.